



## “QUTADG‘U BILIG”DA HARB ISHIGA OID BA‘ZI MULOHAZALAR

**Muallif:** Guzal Maxmudova<sup>1</sup>

**Affiliyatsiya:** Toshkent ijtimoiy innovatsiyalar universiteti tarix yo‘nalishi 1-kurs magistranti<sup>1</sup>

**DOI:** <https://doi.org/10.5281/zenodo.20208797>

### ANNOTATSIYA

Ushbu matnda XI asr turkiy davlatchiligi va harbiy san‘atining muhim siyosiy-huquqiy yodgorligi — Yusuf Xos Hojibning “Qutadg‘u bilig” asari harbiy-tahliliy jihatdan ko‘rib chiqilgan. Maqolada Qoraxoniylar davri harbiy tizimi, sarkarda (su-boshi) shaxsiga qo‘yiladigan ma‘naviy-intellektual talablar hamda “alplik” va “bilig” tushunchalarining o‘zaro uyg‘unligi tahlil qilinadi. Shuningdek, asarda keltirilgan razvedka, pistirma (pusug‘) va tungi bosqin kabi taktik usullar, qurol-aslaha (tolum) tushunchasining mazmun-mohiyati hamda turkiy harbiy strategiyaning o‘ziga xos xususiyatlari ilmiy asoslab berilgan.

**Kalit so‘zlar:** Qutadg‘u bilig, Yusuf Xos Hojib, Qoraxoniylar, harbiy san‘at, su-boshi (sarkarda), alplik, bilig (bilim), pusug‘ (pistirma), tolum (anjomlar), turkiy davlatchilik, harbiy strategiya, su-boshi.

O‘zbek davlatchiligi tarixiga nazar tashlasak, har bir barqaror saltanat zamirida mustahkam harbiy tizim turganini ko‘ramiz. Turkiston mintaqasida shakllangan ilk turkiy xoqonliklardan Temuriylar saltanatigacha bo‘lgan davrda qo‘shin davlatning nafaqat mudofaa qalqoni, balki siyosiy irodasi va qonun ustuvorligini ta‘minlovchi bosh omil bo‘lib kelgan (1). Turkiy xalqlarning harbiy mahorati va jangovar san‘ati ularning davlat qurish salohiyati bilan uzviy bog‘liq holda rivojlangan.

XI asr turkiy davlatchiligi uchun siyosiy va madaniy yuksalish davri hisoblanadi. Bu davrda Qoraxoniylar davlatining maydonga chiqishi qadimiy turkiy davlatchilik tamoyillarining islomiy boshqaruv madaniyati bilan uyg‘unlashuvini boshlab berdi (2). Ushbu murakkab davrning eng muhim siyosiy-huquqiy yodgorligi, shubhasiz, buyuk mutafakkir Yusuf Xos Hojib qalamiga mansub “Qutadg‘u bilig” (Saodatga eltuvchi bilim) asaridir. Bu asar shunchaki pand-nasihatlar to‘plami emas, balki o‘z davrining davlat kodeksi va siyosiy dasturidir: muallif davlatning barqarorligi va rivojini bevosita qo‘shinning ahvoli, uning ichki tartib-intizomi hamda sarkardalarning (sipahsolor) fazilatlarini bilan bog‘laydi (3). Asarda harbiy tizimning axloqiy-falsafiy asoslari va sarkarda shaxsiga qo‘yiladigan ma‘naviy talablar Nizomulmulkning “Siyosatnoma” asariga qaraganda ancha chuqurroq tahlil etilgan (3).

Turkiy-islom davlatchiligi nazariyasining yirik namoyandasi Yusuf Xos Hojib nafaqat shoir va mutafakkir, balki Qoraxoniylar saroyining oliy martabali amaldori va davlat arbobi sifatida ham namoyon bo‘ladi. U taxminan 1017–1019 yillar oralig‘ida Bolasog‘un shahrida tavallud topgan(3). Muallif o‘z davrining mukammal ta‘limini olgan holda turkiy elning ma‘naviy-siyosiy merosini islomiy qadriyatlar bilan mahoratli tarzda uyg‘unlashtirgan. “Qutadg‘u bilig”ni 1069–1070 yillarda Qashqar

shahrida yakunlab, Qoraxoniylar hukmdori Tavg'ach Bug'ra xon Abu Ali Hasanga taqdim etgan (4). Ushbu xizmati evaziga muallifga saroyda nufuzli lavozimlardan biri — “Xos Hojib” unvoni berilgan. Ushbu lavozim davlat boshqaruvida hukmdor, xalq va saroy ma'murlari o'rtasidagi bog'lovchi bo'g'in bo'lib, nafaqat rasmiy ishlarga, balki davlat xavfsizligi tizimiga ham mas'ul edi(1). Shu sababli Yusuf Xos Hojibning asari shaxsiy boshqaruv tajribasi va Qoraxoniylar saroyidagi siyosiy kuzatishlarning nazariy umumlashmasidan iboratdir.

XI asrning ikkinchi yarmi Turkiston mintaqasida katta siyosiy o'zgarishlar davri hisoblanadi. 1041–1042 yillarda Qoraxoniylar saltanatining G'arbiy va Sharqiy qismlarga rasman bo'linishi davlat boshqaruvida yangi tartib-qoidalarni joriy etishni taqozo etdi (2). Yusuf Xos Hojib faoliyat yuritgan Qashqar va Bolasog'un hududlarida an'anaviy turkiy boshqaruv tamoyillari bilan islomiy huquqiy me'yorlar o'rtasidagi muvozanatni saqlash dolzarb masala edi. Qoraxoniylar qo'shini bu davrda an'anaviy qabilaviy lashkardan muntazam, iyerarxik shakllangan davlat armiyasiga o'tish jarayonini boshidan kechirayotgan bo'lib, Yusuf Xos Hojib o'z asarida ushbu o'tish davrining harbiy-siyosiy ehtiyojlarini to'liq aks ettirgan (3). Buyuk ipak yo'li nazorati va ko'chmanchi qabilalarning sadoqatini saqlash zarurati kuchli va nizomga asoslangan qo'shinni talab qilardi.

Asarning harbiy-falsafiy o'zagini “bilig” (bilim) va “alplik” (jasorat) tushunchalarining dialektik birligi tashkil etadi. Yusuf Xos Hojib jismoniy kuchni (bilak) faqat aql va tadbir (bilig) bilan boshqarilsagina davlatga haqiqiy manfaat keltirishi mumkin bo'lgan xizmatkor kuch deb biladi. Uning fikricha, bilim bilan qurollanmagan quruq jasorat qo'shinni muqarrar talafotga va davlatni inqirozga yetaklaydi (3). Harb ishi “to'kish” (to'qnashuv) va “urus” (bevosita jang) terminlari orqali ifoda etilgan bo'lib, ularning muvaffaqiyati sarkardaning aqliy salohiyatiga bog'liq holda tasvirlanadi (5). Shunga parallel ravishda muallif muvaffaqiyatli harbiy harakatning bosh mezoni sifatida “soqlik” (hushyorlik) tushunchasini ilgari suradi: uyg'oq aql va doimiy shaylik dushmanidan ustun kelishning bosh garovidir. Aksincha, “usallik”, ya'ni loqaydlik va g'aflat qattiq qoralanadi, zero harbiy g'aflat oqibatida qo'ldan ketgan g'alaba saltanatning “Qut”ini (baxti va qudratini) so'ndiruvchi omil sifatida baholanadi (5).

Yusuf Xos Hojib “Qutadg'u bilig” asarida qo'shin qo'mondoni — “su-boshi” yoki “sipahsalor” maqomini davlatning eng mas'uliyatli lavozimi sifatida baholaydi. Sarkarda shunchaki harbiy amaldor emas, balki hukmdorning irodasini jang maydonida amalga oshiruvchi va qo'shinning jismoniy hamda ma'naviy yaxlitligini ta'minlovchi yetakchidir. Sarkarda shaxsida “alplik” (qahramonlik) va “bilig” (bilim) mujassam bo'lishi shart: faqatgina jismoniy kuchga tayanuvchi sarkarda qo'shinni halokatga boshlaydi, bilimga tayangan qo'mondon esa oz sonli lashkar bilan ham zafar quchishi mumkin. Muallif o'ttiz va qirq yosh oralig'idagi yetuklik davrini maqsadga muvofiq deb hisoblaydi, zero ushbu yoshda inson botirlik bilan ehtiyotkorlikni muvozanatda saqlay oladi (5). Qo'mondoning askarlari bilan muomalasida “tuz-namak” (tuz-non) haqi tushunchasi markaziy o'rin egallaydi: sarkarda askarlarining moddiy ehtiyojlarini (maosh, oziq-ovqat, kiyim-kechak) vaqtida ta'minlash orqali ularning sadoqatini kafolatlaydi (3). Shuningdek, sarkarda dushman psixologiyasini tushunishi va turli taktik hiylalarni qo'llay olishi g'alaba garovi sifatida ko'riladi; dushman bilan to'qnashuvdan oldin “yezak” (old bo'linma) va razvedka bo'linmalarini ishga solishi, raqib haqida to'liq ma'lumotga ega bo'lishi shart

(3). Kibr va raqibni mensimaslik xatosi esa hushyorlikni so'ndiradigan eng xavfli illatlar sifatida qoralanadi.

Askarlar tabaqasiga yondashuvda muallif son jihatidan ko'plikdan ko'ra sifat jihatdan yetuklikni ustun qo'yadi. "Qutadg'u bilig"da haqiqiy askar nafaqat qurollangan kishi, balki o'z kasbining ustasi va davlatiga sadoqatli shaxsdir. Askarlarning xizmat faoliyati "tolum" (to'liq qurollanish) va doimiy harbiy mashqlar bilan belgilanadi (1). Askarlar xizmat vazifalariga ko'ra turli toifalarga bo'lingan; ularning asosiy qismini tezkor harakatlanish va kutilmagan zarba berish mahoratiga ega suvoriylar tashkil etgan. Har bir askarning o'z qurol-aslahasini soz holda saqlashi davlat oldidagi mas'uliyati sanalgan: o'q va qurollari but askarlar har qanday mushkul vaziyatda ham chekinmaydi, e'tibordan chetda qolgan askar esa davlat xavfsizligiga tahdid soluvchi ichki omilga aylanadi (5).

G'alabaga erishishning bosh mezonini jismoniy son ustunligi emas, balki chuqur o'ylangan strategiya va aqliy tadbirdir. Hiyla tushunchasi orqali urushda aqlning kuch ustidan g'alaba qozonishi ochib beriladi: turkiy davlatchilik an'anasida dushmanni mardlik bilan, ammo kam talafot evaziga mag'lub etish san'atidir (3). Harbiy harakatlarni rejalashtirishda istihborot (dushman haqida ma'lumot to'plash) masalasi birinchi darajali ahamiyatga ega bo'lib, "yezak" va razvedka bo'linmalari dushman qo'shinining soni, joylashgan o'rni va ruhiy holatini aniqlash uchun ishga solinadi. Dushman askarlaridan birini asirga olish, ya'ni "til" tutish ham g'alabaning muhim kaliti sifatida ko'riladi, zero dushmanning siridan voqif bo'lgan sarkarda o'z qo'shinini xavfga qo'ymasdan eng to'g'ri zarba nuqtasini tanlay oladi (3). Taktik usullar orasida "pusug'" alohida o'rin tutadi: qo'shinning bir qismi dushmanni o'ziga jalb qilib soxta chekinish usulini qo'llaydi, so'ngra pistirmadagi asosiy kuchlar dushman qanotlariga va orqasiga zarba beradi (1). Tungi bosqin usuli esa dushmanning son ustunligini yo'qqa chiqaradigan samarali vosita sifatida ko'rsatiladi: tungi hujumda dushman tartibini yo'qotadi, qo'shin ichida vahima tarqaladi va bu oz sonli turkiy lashkar uchun g'alaba imkonini beradi (3).

[Tolum] tushunchasi shunchaki qurol-aslahani emas, balki jangchining to'liq harbiy anjomlar majmuasini, uning professional tayyorgarligini va davlat oldidagi maqomini anglatadi (3). Qurol davlat qudratining moddiy ko'rinishi bo'lib, dushmanga nisbatan haybat va ichki tartibni ta'minlovchi vositadir. Qilich harakatda ekan, dushman qo'zg'alishga jur'at etolmaydi tamoyili doimiy harbiy shaylik va texnik qudratning davlat barqarorligining moddiy kafolati ekanini ko'rsatadi (5). Turkiy harbiy an'anada qilich hokimiyat va adolat ramzi hisoblanib, kamon va o'q-yoy esa etnik-madaniy o'zlikni ifodalovchi asosiy qurol sifatida alohida e'tiborga molik. Mudofaa aslahalari – "yoruq" (sovut) va "qalqon" — nafaqat jismoniy himoya, balki jangchining ruhiy xotirjamligini ham ta'minlovchi omil sifatida qaraladi(5). O'troq hayot va shahar madaniyati rivojlangan Qoraxoniylar davrida qal'a qamallari harbiy harakatlarning murakkab turiga aylangan; manjaniq kabi og'ir qamal texnikalarining qo'llanilishi o'sha davr turkiy qo'shinlarining ochiq maydonda ham, muhandislik talab etiladigan qamal janglarida ham yuksak salohiyatga ega bo'lganini tasdiqlaydi(8).

Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilig" asari nafaqat adabiy doston yoki falsafiy traktat, balki turkiy xalqlar davlatchilik tarixida harbiy-siyosiy tafakkurning shakllanishiga asos bo'lgan muhim yo'riqnomadir. Asarning tahlili quyidagi ilmiy xulosalarni chiqarish imkonini beradi. Birinchidan, muallif turkiy davlatchilikning qadimgi "to'ra" an'analarni islomiy boshqaruv madaniyati bilan uyg'unlashtirib, o'ziga xos harbiy doktrina yaratdi; bu doktrinaning o'zagi "bilig" va "alplik" birligidir (3).

Ikkinchidan, asarda bayon etilgan sarkarda qiyofasi professionalizm va yuksak axloqiy me'yorlar asosiga qurilgan bo'lib, qo'shin ichidagi sadoqatni nafaqat qo'rqinch, balki o'zaro ishonch va "tuz-namak" haqqiga sadoqat orqali ta'minlashni ko'zda tutadi (5). Uchinchidan, keltirilgan harbiy strategiya va jangovar taktikalar — razvedka, pistirma (pusug') va tungi bosqin usullari — turkiy harbiy san'atning yuksak taraqqiyot bosqichida bo'lganidan dalolat beradi(1). To'rtinchidan, Yusuf Xos Hojibning harbiy-siyosiy qarashlari Nizomulmulkning "Siyosatnoma" asari bilan hamohang bo'lib, keyinchalik Xorazmshohlar, Saljuqiylar sulolasidagi harbiy nizomlar uchun nazariy poydevor bo'lib xizmat qildi (6).

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI**

1. Erkan Göksu. Türk Savaş Sanatı. – İstanbul: Kronik Kitap, 2018.
2. Erkan Göksu. Ok ve Yayın Türk Devlet Geleneği ve Hakimiyet Anlayışındaki Yeri // Turkish Studies. – 2010. – Volume 5/2.
3. Erkan Göksu. İslam Tarihinde Mancınıklar ve Mancınık Teknolojisi Üzerine Bir Değerlendirme // Antakiyat. – 2019. – 2(2).
4. Erkan Göksu. Kutadgu Bilig'e Göre Türk Savaş Sanatı. – İstanbul: Kronik Kitap, 2018.
5. Yusuf Xos Hojib. Qutadg'u bilig (Saodatga yo'llovchi bilig). – Toshkent: Fan, 1971.
6. Bedri Sarıca. Kutadgu Bilig'de Komutan ve Ordunun Nitelikleri // A.Ü. Türkiyat Araştırmaları Enstitüsü Dergisi. – Erzurum, 2008. – Sayı 37.
7. Pritsak O. Karachanidische Streitfragen 1–4 // Oriens. – 1950. – Vol. 3, No. 2. – S. 209–228.
8. Qo'ldoshev S. O'zbek davlatchiligi tarixi: "Devonu lug'otit turk" davlat boshqaruvi bo'yicha muhim manba: Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) diss. avtoref. – Toshkent, 2025.